



CRAFTSMANSHIP TRADITIONS OF NAMANGAN REGION – IN THE SYSTEM OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE

Otabek Solijonov

PhD candidate at the Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage

solijonovotabek97@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: intangible cultural heritage, traditions, customs, handicrafts, Namangan, ethnography.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: The article analyzes the intangible cultural heritage of Namangan region, its historical roots, and stages of development. It focuses on the revival of traditional crafts, customs, and oral folk art that have been preserved and transformed through centuries. The research is based on historical sources and ethnographic observations.

NAMANGAN VILOYATINING HUNARMANDCHILIK AN'ANALARI – NOMODDIY MADANIY MEROS TIZIMIDA

Otabek Solijonov

Madaniyatshunoslik va nomoddiy

madaniy meros ilmiy tadqiqot

instituti tayanch doktoranti

solijonovotabek97@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: nomoddiy madaniy meros, xalq an'analari, urf-odat, hunarmandchilik, Namangan, etnografiya.

Annatatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyatining nomoddiy madaniy merosi, uning tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari tahlil etiladi. Hududda asrlar davomida shakllangan xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, an'alar hamda hunarmandchilik madaniyatining bugungi kunda qayta tiklanishi va rivojlanish yo'nalishlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqolada tarixiy manbalar, etnografik kuzatishlar va zamonaviy ilmiy adabiyotlarga tayanilgan.

ТРАДИЦИИ РЕМЕСЕЛ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ – В СИСТЕМЕ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ

Отабек Солижонов

Аспирант Института культурологии и нематериального культурного наследия

solijonovotabek97@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, традиции, обычаи, ремесла, Наманган.

Аннотация: В статье рассматривается история и развитие нематериального культурного наследия Наманганской области. Анализируются народные традиции, обычаи, ремёсла и устное творчество, сохранившиеся и развивающиеся на протяжении веков.

Kirish. Nomoddiy madaniy meros har bir xalqning ma'naviy boyligini ifodalovchi bebaho qadriyatlar tizimidir. U millatning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi va an'anaviy bilimlarini o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy merosni asrash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir[1]. Fikrimizcha, nomoddiy madaniy meros xalqning ruhiyati, ijtimoiy harakterini aks ettiruvchi eng muhim voqelikdir. U millatning o'zligini saqlash, madaniy uzviylikni ta'minlash hamda yosh avlodda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, uni asrash, ilmiy o'rganish va zamonaviy shaklda targ'ib qilish davlat siyosati ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Namangan viloyati, ayniqsa, xalq hunarmandchiligi, to'qimachilik, kulolchilik, baxshichilik, marosim qo'shiqlari, milliy raqs va og'zaki ijod namunalariga boy hudud hisoblanadi. Bu jihatdan, viloyatning nomoddiy madaniy merosi nafaqat mintaqaviy, balki umummilliy madaniy taraqqiyotga katta hissa qo'shgan.

Nomoddiy madaniy meros — bu xalqning asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga og'zaki, amaliy yoki marosimiy shakllarda o'tib kelayotgan ma'naviy boyliklar, qadriyatlar va an'analar majmuasidir. U millatning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, hayot tarzi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, xalq musiqasi, raqslari, milliy liboslari, hunarmandchiligi, milliy taomlari va xalq tibbiyoti kabi turli ko'rinishlarni o'z ichiga oladi. Nomoddiy madaniy meros moddiy yodgorliklardan farqli ravishda, asosan insonlar xotirasida, amaliy faoliyatida va ijtimoiy hayotda yashab keladi.

UNESCO tomonidan 2003-yilda qabul qilingan “Nomoddiy madaniy merosni asrash to'g'risida”gi Konvensiyada [2] bu tushuncha “jamiyat, guruh yoki ayrim shaxslar tomonidan

o'z madaniy meroslarining bir qismi sifatida tan olingan, avloddan-avlodga o'tib keluvchi amaliyotlar, ifodalar, bilimlar va ko'nikmalar majmuasi" sifatida ta'riflangan.

Nomoddiy meros xalqning o'zligini namoyon etuvchi, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi, insonlar orasidagi totuvlik va hamjihatlikni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri. U zamonaviy globalizatsiya sharoitida milliy o'zlikni saqlash, madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, nomoddiy madaniy merosni o'rganish, hujjatlashtirish, asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish har bir jamiyatning dolzarb vazifasidir.

Adabiyotlar va tadqiqotlar. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi insoniyat tarixida uzoq davrlardan beri mavjud bo'lib, u xalqning ijtimoiy tajribasi, urf-odatlar, marosimlari va og'zaki ijodi orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Jahon tadqiqotchilari bu sohani o'rganishda nomoddiy merosning nafaqat estetik, balki ijtimoiy, axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatini ham alohida ta'kidlab o'tishgan. Masalan, fransuz antropologi Klaude Levi-Strauss o'zining "Yovvoyi tafakkur" ("La pensée sauvage") asarida shunday yozadi: "Xalq madaniyati, ayniqsa uning og'zaki va marosimiy shakllari, inson tafakkurining eng qadimiy qatlamlarini o'zida saqlaydi"[3]. Bu fikr nomoddiy merosning insoniyat taraqqiyotidagi o'rini chuqur ifodalaydi.

Shuni aytish joizki, xalq madaniyatining og'zaki ijodi va marosimiy shakllari insoniyat tafakkurining tarixiy ildizlarini saqlab qoluvchi tirik xotira vazifasini bajaradi. Ular xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini avloddan-avlodga yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bunday merosni o'rganish va asrab-avaylash milliy o'zlikni anglashning muhim omilidir.

Shuningdek, ingliz etnografi Eduard B. Taylor "Ibtidoiy madaniyat" nomli asarida madaniyatni "inson tomonidan o'zlashtirilgan bilim, e'tiqod, san'at, axloq, qonun va an'analarining murakkab majmuasi" sifatida ta'riflab[4], uning tarkibida og'zaki an'analar va marosimlarning muhim o'rin tutishini qayd etgan.

XX asrda bu yo'nalish xalqshunoslik va etnologiya fanlari doirasida chuqur o'rganila boshlandi. Alan Dundes o'zining "Folklor talqini" ("Interpreting Folklore") asarida – "Nomoddiy meros xalqning ijtimoiy hayotidagi o'zaro muloqot, qadriyat va identifikatsiya jarayonlarining markazida turadi"[5] deb ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham, nomoddiy madaniy meros xalqning ijtimoiy hayotini bir butun tizim sifatida birlashtiruvchi, uni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi omil sanaladi. U insonlar o'rtasidagi o'zaro muloqotni shakllantiradi, ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi hamda milliy qadriyatlar asosida jamiyatning o'ziga xos identitetini

belgilaydi. Shu sababli, nomoddiy merosni asrash va targ'ib etish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

UNESCOning 2003-yilda qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni asrash to'g'risida"gi Konvensiyasi ushbu soha rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Konvensiyada "nomoddiy madaniy meros insonlar tomonidan yaratilgan, ularning identifikatsiyasi va barqaror rivojlanishining asosi hisoblanadi" deb e'tirof etiladi. Bugungi kunda jahon miqyosida bu merosni o'rganish, hujjatlashtirish va himoya qilish global madaniy siyosatning ajralmas qismiga aylangan.

Tadqiqot va muhokamalar. Namangan xalqining qadimiy urf-odatlar ham o'z davrining tafakkur mahsuli sifatida madaniy tizimda o'z o'rniga ega bo'lgan. Bu meros xalq hayotining ma'naviy asosini tashkil etib, asrlar davomida xalqning o'zligini, ijtimoiy birligini va madaniy xotirasini saqlab kelgan. Namangan hududi qadimdan Farg'ona vodiysi madaniyatining markazlaridan biri sifatida shakllangan. Arxeologik topilmalar, yozma manbalar hamda xalq og'zaki ijodi namunalari bu yerda qadimdan boy ma'naviy hayot kechganini tasdiqlaydi[6].

Nomoddiy madaniy meros tarkibiga quyidagilar kiradi:

- xalq og'zaki ijodi (ertak, afsona, maqol, topishmoq);
- an'anaviy hunarmandchilik turlari (to'qimachilik, kulolchilik, zardo'zlik, misgarlik);
- marosimlar va udumlar (to'y, sunnat to'yi, Navro'z, hashar);
- xalq musiqasi va raqslari (doira, rubob, tanbur jo'rligida ijrolar).

XIX asrda Namangan viloyati hududida "Qo'qon xonligi" madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, Namanganlik ustalar o'z san'at maktablarini yaratgan. Masalan, to'qimachilikda "chust atlas" uslubi, kulolchilikda esa "Namangan naqshi" deb ataluvchi o'ziga xos bezaklar shakllangan[7]. Ayniqsa, Namangan to'qimachilari tomonidan tayyorlangan Chust atlas nafaqat yurtimiz hududida balki butun dunyoga nashhur mato sanaladi.

Chust atlas — Namangan viloyatining Chust tumanida qadimdan to'qilib kelayotgan an'anaviy ipak mato bo'lib, u Farg'ona vodiysi madaniy merosining muhim qismi sanaladi. Atlas to'qish san'ati bu hududda asrlar davomida shakllangan bo'lib, uning nafis ranglari va murakkab naqshlari xalqning didi, urf-odati va estetik qarashlarini ifodalaydi. Tadqiqotchi A. Jo'raev ta'kidlaganidek, "Farg'ona vodiysi hunarmandchiligi xalqning ijtimoiy hayoti va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog'liqdir". Bu hunarmandchilik turi xalq madaniyatining hayotiy mohiyatini chuqur ochib beradi. Farg'ona vodiysi hunarmandchiligi — bu faqat moddiy ishlab chiqarish emas, balki jamiyatning tarixiy tajribasi, estetik qarashlari va ijtimoiy munosabatlarining ifodasidir.

Hunarmandchilik buyumlarida aks etgan naqshlar, ranglar va shakllar xalqning turmush tarzini, urf-odatlarini hamda e'tiqodini o'zida mujassam etadi. Shu sababli, bu sohani faqat iqtisodiy faoliyat sifatida emas, balki madaniy identifikatsiyaning muhim unsuri sifatida o'rganish zarur. Chust atlasasi asosan tabiiy ipak tolalaridan tayyorlanib, tabiiy bo'yoqlar yordamida ranglanadi. Har bir naqsh o'z ma'nosiga ega bo'lib, ayrimlari farovonlik, baxt va sadoqat timsoli sifatida talqin qilinadi. Fransuz etnografi Klod Lévi-Strauss aytganidek, "madaniyatning ramzlari orqali inson o'z ijtimoiy haqiqatini anglaydi". Shu bois Chust atlasasi nafaqat bezak buyumi, balki xalqning o'zlik ifodasi sifatida ham qadrlanadi.

Bugungi kunda Chust atlasasi O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, milliy hunarmandchilik an'alarining davomiyligini saqlab turuvchi bebaho boylik hisoblanadi.

XX asr boshlarida sanoatlashtirish jarayonlari natijasida ko'plab hunarmandchilik turlari inqirozga yuz tutdi. Ammo mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni tiklash siyosati doirasida nomoddiy meros qayta e'tiborga olindi. 2001-yilda UNESCO tomonidan "Nomoddiy madaniy merosni asrash to'g'risida"gi konvensiyaning imzolanishi bu yo'nalishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Bugungi kunda Namangan viloyatida "Nomoddiy madaniy meros markazi", "Hunarmand" uyushmasi va madaniyat markazlari faoliyat olib bormoqda. Har yili o'tkaziladigan "Atlas va adras festivali", "Milliy taomlar haftaligi", "Xalq ijodiyoti kuni" kabi tadbirlar bu merosni targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Etnologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Namangan aholisi orasida xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va marosimlar hozir ham faol tarzda yashab kelmoqda. Masalan, to'y marosimlarida "yor-yor" qo'shiqlari, "kelin salom" an'alari, "kelin oshi" kabi qadimiy udumlar avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Namangan viloyatining nomoddiy madaniy merosi — bu xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy tajribasi, turmush tarzi va dunyoqarashining yorqin ifodasidir. Viloyat hududida qadimdan mavjud bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, xalq og'zaki ijodi, milliy liboslar, an'anaviy hunarmandchilik turlari (atlas, adras, kashtachilik, kulolchilik va boshqalar) xalqning ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelgan. Shu bois, Namangan viloyati madaniy merosi O'zbekiston xalqining umumiy nomoddiy boyligining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda ushbu merosni saqlash, tiklash va yosh avlodga yetkazish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. UNESCO va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan olib borilayotgan tashabbuslar natijasida ko'plab

mahalliy an'analar, jumladan, Chust atlas to'qish san'ati, xalq qo'shiqlari, bayram marosimlari va xalq o'yinlari nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan.

Namangan viloyatining hunarmandchilik an'analari xalqning ko'p asrlik madaniy tajribasi, estetik didi va mehnatsevarlik an'alarini ifodalovchi nomoddiy madaniy merosning ajralmas tarkibiy qismidir. Mazkur an'analar milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash hamda hududning madaniy va iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, Namangan viloyatida mavjud hunarmandchilik yo'nalishlarini – chust pichoqchiligi, pop kulolchilik maktabi, uchqo'rg'on to'qimachiligi, kosibchilik, yog'och o'ymakorligi, kashtachilik va boshqalarni – nomoddiy madaniy meros tizimi doirasida alohida yo'nalish sifatida hujjatlashtirish zarur. Shu maqsadda viloyat miqyosida "Nomoddiy madaniy meros reyestri"ni yaratish, har bir hunarmandchilik turi bo'yicha ustozlar, uslublar, ishlatiladigan materiallar va an'anaviy texnologiyalarni ilmiy asosda ro'yxatga olish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, mavjud hunarmandchilik tarmoqlarini raqamlashtirish va arxivlashtirish ishlari tizimli yo'lga qo'yilishi lozim. Bunda xalq ustalari faoliyati, ularning asarlari va texnologik jarayonlarini foto, video va audio shaklida hujjatlashtirish, maxsus elektron ma'lumotlar bazasini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat merosni saqlash, balki uni keyingi avlodlarga uzatishda ham muhim omil bo'ladi.

Uchinchidan, Namangan viloyatida hunarmandchilikni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va uni hududiy turizm brendi sifatida rivojlantirish zarur. Shu ma'noda, viloyatdagi hunarmandlar faoliyatini birlashtiruvchi "Hunarmandchilik klasterlari"ni tashkil etish, ishlab chiqarish, marketing va eksport yo'nalishlarini yagona tizimda olib borish samarali natija beradi. Shuningdek, "Made in Namangan" brendi ostida milliy hunarmandchilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarda targ'ib etish hudud iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

To'rtinchidan, yosh avlodni milliy hunarmandchilik an'alariga jalb etish maqsadida o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida "Milliy amaliy san'at va hunarmandchilik asoslari" fanlarini joriy etish, ustoz-shogird tizimini saqlab qolish va amaliy o'quv kurslarini tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda nafaqat an'anaviy hunarlarni o'rgatish, balki zamonaviy dizayn, marketing va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, viloyatning turistik salohiyatini oshirishda hunarmandchilik an'alarini faol qo'llash lozim. Namangan shahri va tumanlarida hunarmandchilik markazlarini madaniy-turistik marshrutlarga kiritish, ustaxonalar asosida interaktiv ko'rgazmalar va master-klasslar tashkil etish sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Bu esa hududda madaniy turizmni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Oltinchidan, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hududiy dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Bu dasturlar doirasida mahalliy hunarmandlar uyushmalari, nodavlat tashkilotlar va yoshlar markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga soliq, bojxona va kredit imtiyozlari yaratish taklif etiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar – jumladan, UNESCO bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali Namangan hunarmandchilik maktablarini xalqaro miqyosda tanitish mumkin.

Yettinchidan, viloyatdagi mavjud hunarmandchilik turlarini o'rganish va saqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish, mahalliy universitetlarda amaliy-etnografik markazlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu markazlar o'z navbatida xalq hunarmandchiligi tarixini, texnologik jarayonlarini, estetik uslublarini o'rganish va yosh olimlarni ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borishga jalb etadi.

Yuqorida keltirilgan takliflarni amaliyotga tatbiq etish Namangan viloyatining hunarmandchilik an'alarini yanada rivojlantirish, ularni nomoddiy madaniy meros sifatida asrab-avaylash, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda hududning iqtisodiy va madaniy nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Namangan viloyatining hunarmandchilik an'alari o'zbek xalqining ko'p asrlik madaniy merosi, mehnat madaniyati, estetik qarashlari va ijtimoiy hayotining uzviy qismi sifatida nomoddiy madaniy meros tizimida muhim o'rin egallaydi. Ushbu an'alar xalqning tarixiy tajribasini, milliy o'zligining ifodasini hamda avloddan avlodga o'tuvchi ma'naviy boyliklarini mujassam etadi. Tadqiqot davomida Namangan viloyatida shakllangan hunarmandchilik turlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, madaniy xususiyatlari va zamonaviy davrda tutgan o'rni ilmiy asosda o'rganildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, viloyatda asosan pichoqchilik (Chust maktabi), kulolchilik (Pop va To'raqo'rg'on maktablari), kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, to'qimachilik va kosibchilik kabi hunarmandchilik turlari keng rivojlangan. Ularning har biri nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki milliy madaniyatning o'ziga xos timsoli sifatida ajralib turadi. Har bir yo'nalish o'ziga xos ustachilik uslubi, bezak san'ati va amaliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Namangan viloyatida hunarmandchilikning rivojlanishi tarixan tabiiy sharoit, etnik tarkib, savdo yo'llari va xalqaro aloqalarning ta'siri ostida shakllangan. Bu jarayonlar hunarmandchilikni faqat maishiy ehtiyoj emas, balki madaniy, estetik va ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etishga asos yaratgan. Mazkur an'alar xalqning dunyoqarashi, didi, ijodkorligi hamda mehnatsevarligini ifodalaydi.

Bugungi kunda Namangan viloyatining hunarmandchilik merosi nomoddiy madaniy meros tizimi doirasida davlat e'tiboriga olinib, uni asrash va rivojlantirish yo'lida qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Hunarmand" uyushmasi, viloyat madaniyat boshqarmasi, muzeylar hamda xalq ustalari hamkorligida hunarmandchilik mahsulotlarini saqlash, targ'ib etish va yoshlar o'rtasida ommalashtirish ishlari yo'lga qo'yilgan. Bu esa xalq amaliy san'atining davomiyligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyati hunarmandchilik an'analari nafaqat tarixiy meros, balki bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyot va madaniy turizmning muhim yo'nalishiga aylangan. Hunarmandchilik sohalarini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy brendlarni shakllantirish va eksport salohiyatini oshirish imkoniyati mavjud. Shu jihatdan, xalq ustalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning ijodiy ishlanmalarini raqamlashtirish hamda xalqaro maydonda targ'ib etish dolzarb vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyatining hunarmandchilik an'analari o'zbek xalqining madaniy o'zligida beqiyos o'rin tutadi. Ular milliy g'urur, estetik did, mehnatsevarlik va ijodkorlik timsoli bo'lib, nomoddiy madaniy meros tizimi orqali saqlanmoqda va yangi davr talablari asosida yangicha mazmun kasb etmoqda. Hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, tashkiliy va ta'limiy chora-tadbirlarning izchil davom ettirilishi viloyatning madaniy nufuzini yanada oshiradi, xalq amaliy san'atining barqaror taraqqiyotini ta'minlaydi hamda milliy merosning uzluksizligini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2017-yil 17-noyabrda "Nomoddiy madaniy merosni asrash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3391-son Qarori.
2. <https://www.unesco.org/en/intangible-cultural-heritage>
3. Lévi-Strauss, La Pensée Sauvage, 1962.
4. Eduard B.Taylor. Primitive culture. – London.: 1871. P.1.
5. Alan Dundes. Interpreting folklore. – Bloomington.: "Indiana university press", 1980. – P. 211.
6. Jo'raev, A. Farg'ona vodiysi etnomadaniyati va tarixiy jarayonlar. Toshkent: Fan nashriyoti. 2010.
7. Karimov, B. O'zbekiston xalq hunarmandchiligi tarixi. Toshkent: O'qituvchi. 1998.
8. UNESCO (2003). Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris.

9. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. (2022). Nomoddiy madaniy meros markazlari faoliyati haqida hisobot. Toshkent.